**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**
**TOSHKENT DAVLAT**
**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“Tasdiqlayman”**
**O‘quv ishlar bo‘yicha prorektor**
**_________ S.Normamatov**
**“__” _______________**

# BAKALAVRIAT TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING PEDAGOGIK AMALIYOT ISHCHI DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230000 – Tillar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik |

Amaliyot davomiyligi- bir haftada bir kun (07.02.22-06.06.22)
Haftasiga: 6 soat
Jami: 108 soat

**Toshkent-2021**

Pedagogik amaliyotning ishchi o'quv dasturi Amaliy filologiya fakulteti Kengashining 2021____-yil “28” 08 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchilar:**

**Sobir Mansurov** – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik kafedrasi katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**Manzar Abdulxayrov** Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik kafedrasi dotsenti f.f.d.

**Zilola Shukurova** Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Amaliy filologiya fakulteti dekani: ______________ S.Muhamedova
2021-yil “28” 08

Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik kafedrasi mudiri: ______________ R.Zohidov
2021-yil “28” 08

## 1. Pedagogik amaliyotning o'tkazilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Respublikamizda “uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash”[1], shu bilan birgalikda umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimida faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston jahon tajribalarini hisobga olgan holda o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilab, shu yo'ldan og'ishmay ilgarilayotgan ekan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan ta'lim va tarbiyada ham shunday yo'l tutililishi kerakligi tabiiy. “Hozirgi tez o'zgarayotgan globallashuv davrida o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish...”[2], “o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” kabi vazifalar “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmonda belgilab berildi[3] [3]. Ana shu islohotlar silsilasida ta'lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzliksizlikni, ular orasidagi aloqa va bog'lanishlarni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vazifani amalga oshirishni ta'minlash ko'p jihatdan pedagogik amaliyotga ham bog'liqdir. Mazkur pedagogik amaliyot dasturi bevosita ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

## 2. Talabalar malakaviy amaliyotining maqsad va vazifalari

Pedagogik amaliyot davomida talabalar eski o'zbek yozuvi, mumtoz adabiyot tarixi hamda boshqa fanlardan olgan bilim va ko'nikmalarini sinab ko'radilar, amalga tatbiq qiladilar. Malakaviy amaliyot muzey, ilmiy tadqiqot institutlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda akademik litseylar bilan oliy ta'lim tizimini jips bog'laydigan bo'g'in hisoblanadi. Bu davrda talabalar o'qish davomida olgan nazariy bilimlarga, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida sinalgan tajribalarga tayanib mustaqil faoliyat olib boradilar; yuqori malakali metodist muzeyshunoslarning ish faoliyati bilan tanishadilar, ulardan o'rganadilar, turli ruhiyat egalari – ilmiy xodimlar bilan hamkorlikda o'quv-tarbiya ishlarini olib boradilar.

Pedagogik amaliyot o'zining quyidagi maqsad va vazifalariga ega.

Pedagogik amaliyotning **maqsadi** – talabalaga muzey eksponatlarini amaliy jihatdan tanishtirish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, muzeyda saqlanayotgan nodir manbalarni o'rganishga oid kasbiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, mumtoz asarlarni o'rganish metodikasining nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyotning **vazifasi** – talabalarni o'z mutaxassisligi bo'yicha universitetda olgan nazariy bilimini amaliyot bilan bog'lash, nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash, shuningdek, ularni ona tili va adabiyot ta'limi jarayoniga pedagogik, psixologik hamda metodik jihatdan tayyorlashdan iborat.

Pedagogik amaliyot davomida talaba quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

1. Yuqori malakali, ko'p yillik ish tajribasiga ega olimlarning ish tajribalarini o'rganish. O'z mutaxassisligidan dars olib borish malakasini egallash.

---

1 Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари // –Т.: F.Fулом, 2017. 70-б.
2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида” ги ПФ-4797 сонли Фармони. 2016 йил 13 май.
3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2019 й. 29.04., 06/19/5712/3034-сон).

2.Adabiyot muzeyi hayoti, uning metodik yo'nalishi, o'quv-tarbiya jarayoni bilan tanishish, o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashish, mustaqil ish yuritish malakasini hosil qilish.

3.Eski o'zbek yozuvi fanidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarni o'rganish va tashkil etishda qatnashish.

4.O'zlashtirishda orqada qolgan o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari individual ishlash usullarini o'rganish. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarishga hissa qo'shish.

5.O'quv yurtida o'z mutaxassislik fani yuzasidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari ustida fikr yuritish mavzu tanlash, material to'plash, ayrim sinov-tajriba ishlarini olib borish, tajribali uslubchi o'qituvchilar bilan suhbatlar o'tkazish.

6. Amaliyot davomida muzey xodimlarini ish uslubini o'rganish, o'quv muassasasi tarbiyaviy ish rejasiga mos tadbirlar tashkil etib, o'tkazishga rahbarlik qilish. Muzey miqyosida o'tadigan tadbirlarda faol qatnashish.

7. Eksponatlar xonasini jihozlashga, ko'rgazmali qurollar, metodik qo'llanmalar bilan boyitishga yaqindan yordam berish.

**3. Malakaviy amaliyot bo'yicha talabalar bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar**

Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik ta'limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari, matnshunoslik o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar, metodlar, ona tilidan dars turlari va unda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar; ona tili va adabiyot fanlari bo'yicha baholash mezonlari haqidagi ***tasavvurga (bilim)***;

–eski o'zbek yozuvidagi asarlar katalogini tuza olish, ta'lim jarayonida an'anaviy va noan'anaviy dars shakllarini qo'llash, o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma);***

– o'quv ishlarini loyihalashtirish; eski o'zbek yozuvidagi yozuv san'ati, xat turlari darslarini aniq va maqsadli tashkil eta olish; dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qila olish, o'z shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim***.

**4. Talabalarning malakaviy amaliyoti mazmuni**

Talabalarning uzluksiz malakaviy amaliyoti pedagogika, psixologiya, falsafa, mantiq, tilshunoslikka kirish, hozirgi o'zbek adabiy tili, shevashunoslik, adabiyot tarixi, nutq madaniyati, til tarixi, tarix, geografiya, fizika fanlari bilan aloqadorligi mavjud. Malakaviy amaliyotning boshqa fanlar bilan aloqasi dars jarayonida o'quvchilar bilimini, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Mumtoz adabiyot fanini o'qitishning faol metod va shakllari o'z ichiga muammolilik, ilmiy izlanish, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlaridan, yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish kabilarni oladi. Yuqorida qayd qilingan metod va usullar amaliyotda keng qo'llanadi.

Talabalar 1-kursda passiv, 4-kursda esa uzluksiz malakaviy amaliyotni o'taydilar. O'quv yurti:ilmiy tadqiqot institutlari, maktab va akademik litsey pedagogik jamoasi faoliyati bilan tanishadilar; ish rejalari tuzib, kundalik daftar yuritish, dars kuzatish, haftalik, choraklik o'quv rejalaridan foydalanish malakasini hosil qiladilar. O'quvchilar bilimini, og'zaki, yozma va mustaqil ishlarini baholash tajribasini o'rganadilar. Darsning reja-konspektini tayyorlab, uni tashkil etish va o'tkazishga oid mashq darslarini boshlaydilar. Metod birlashma ishi bilan tanishadilar, birlashma yig'ilishlarida ishtirok etadilar, sinfdan tashqari ishlarni olib borish tajribalarini o'rganadilar, tadbirlar tashkil etib o'tkazishda qatnashadilar.

**1- kurs talabalarining malakaviy amaliyot dasturi mazmuni**

| T/r. | Bajariladigan ishlar mazmuni | Amalga oshiruvchilar |
|---|---|---|
| 1. | Fakultetda talabalarning bir kunlik amaliyotiga bag'ishlangan seminar o'tkazish | R Zohidov, S.Mansurov, Atayev A, talabalar |
| 2. | Talabalar biriktirilgan muzeyda malakaviy amaliyotni boshlash oldidan umumiy maqsad va vazifalarni belgilash | S.Mansurov, Atayev A, talabalar |
| 3. | Muzey xodimlarining kengashlarida, ishtirok etish | Muzey xodimlari, S.Mansurov, Atayev A, talabalar |
| 4. | Universitet hamda amaliyot olib boriladigan muassasa faoliyatiga tegishli ma'lumotlarni Universitet saytida yoritib borish | Amaliyot o`qituvchilari |
| 5. | Amaliyot olib borilayotgan muassasada tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish | S.Mansurov, Atayev A, talabalar |
| 6. | Adabiyot muzeyi eksponatlari bilan tanishish | S.Mansurov, Atayev A, talabalar |
| 7. | Muzey qolyozma fondi bilan tanishish | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 8. | Muzey fondida saqlanayotgan turkey qo'lyozma asarlar bilan tanishish | mas'ul o'qituvchilar, talabalar |
| 9. | Muzey fondida saqlanayotgan XIX – XX asrga oid jurnallar | mas`ul o`qituvchilar |
| 10. | Muzey fondida saqlanayotgan turkey qo'lyozma asarlar katalogini tuzish | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 11. | Biriktirilgan guruh o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlash. | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 12. | Muzey fondida saqlanayotgan forsiy qo'lyozma asarlar | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 13. | Muzey fondida saqlanayotgan arabiy qo'lyozma asarlar | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 14. | Muzey fondida saqlanayotgan jadidlar adabiyotini o'rganish | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 15. | Muzey fondida saqlanayotgan turkey, arabiy toshbosma asarlar | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 16. | Muzey fondida saqlanayotgan arabiy qo'lyozma va toshbosma asarlar katalogini tuzish | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |

| | | |
|---|---|---|
| 17. | Muzey fondida saqlanayotgan forsiy toshbosma asarlar | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 18. | Muzey eksponatlaridagi yozuvlarni o'rganish | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 19. | Muzey fondida saqlanayotgan A.Navoiy asarlari | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 20. | Qo'lyozma va toshbosma asarlarni electron katalogini tuzish tartibi | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 21. | Qo'lyozma va toshbosma asarlarni electron katalogini tuzish tartibi | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 22. | Qo'lyozma va toshbosma asarlarni electron katalogini tuzish tartibi | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 23. | Qo'lyozma va toshbosma asarlarni electron katalogini tuzish tartibi | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 24. | Qo'lyozma va toshbosma asarlarni electron katalogini tuzish tartibi | Sh.Isayeva, talabalar |
| 25. | Muzey fondida saqlanayotgan folklor adabiyotini o'rganish | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 26. | Muzey fondida saqlanayotgan folklor adabiyotini o'rganish | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 27. | Muzeydagi xattotlik namunalari bilan tanishish | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 28. | XVI va XVIII asrga oid asarlar xatlari bilan tanishish | Talabalar |
| 29. | Muzey jamoasi bilan birgalikda malakaviy amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjuman o'tkazish | Talabalar, mas'ul o'qituvchilar |
| 30. | Bajarilgan ishlar to'g'risida yillik hisobot yozib topshirish | S.Mansurov, Atayev A, talabalar |

## 5. Pedagogik amaliyot topshiriqlari

**1- kurs talabalari amaliyot yakunida quyidagi hujjatlarni topshirishi lozim:**

1. Talaba haqidagi ma'lumotnoma
2. Kundalik daftar (imzolangan va muhrlangan shaklda)
3. Amaliyot jarayoni aks etgan fotolavhalar
4. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga oid hujjatlar (Har 5 nafar talaba 1 ta tadbir o'tkazishi va ishlanmasini taqdim etishi kerak)
5. Amaliyot o'talgan ta'lim muassasasida amaliyot o'tash jarayonida talabalar duch kelgan muammolar va ularni yechish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish)
6. Hisobot.

## 6. Talabalarning amaliyot bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagilarga amal qilinadi:

**A'lo (5)** ball olish uchun talaba ta'limda innovatsion pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, fan bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuni, kompetensiyaga yo'naltirilgan mumtoz adabiyot fanlaridan o'quv dasturi, uzluksiz ta'limning eski o'zbek yozuvi,xattotlik fanlaridan darsliklarning tuzilishi va mazmuni hamda fan o'qituvchisi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlarga oid nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan masalaga ijodiy yondoshib, uning mohiyatini tushunib mustaqil ravishda mushohada yurita olishi, uni yechish usullarini puxta bilishi va uni amaliyotga qo'llay olishi, 10 banddan iborat amaliyotga tegishli belgilangan hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etishi, talablarni to'liq bajarishi, muassasa rahbari tomonidan ijobiy tavsifnoma olgan bo'lishi kerak.

**Yaxshi (4)** ball olish uchun talaba ta'limida innovatsion pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, fan bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuni, kompetensiyaga yo'naltirilgan eski o'zbek yozuvi,xattotlik fanlaridan o'quv dasturi, uzluksiz ta'limning eski o'zbek yozuvi,xattotlik fanlaridan darsliklarning tuzilishi va mazmuni hamda fan o'qituvchisi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlarga oid nazariy jihatdan bilimga ega bo'lishi, 6 banddan iborat amaliyotga tegishli belgilangan hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etishi, talablarni to'liq, lekin ayrim juz'iy kamchiliklar bilan bajarishi, muassasa rahbari tomonidan ijobiy tavsifnoma olgan bo'lishi kerak.

**Qoniqarli (3)** ball olish uchun talaba fan bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuni, kompetensiyaga yo'naltirilgan ona tili va adabiyot fanlaridan o'quv dasturi, uzluksiz ta'limning ona tili va adabiyot fanlaridan darsliklarning tuzilishi va mazmuni hamda fan o'qituvchisi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlarga oid nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan masalaga ijodiy yondoshib, uning mohiyatini tushunib mustaqil ravishda mushohada yurita olishi, uni yechish usullarini puxta bilishi va uni amaliyotga qo'llay olishi, 10 banddan iborat amaliyotga tegishli belgilangan hujjatlarni ayrim kamchiliklar bilan taqdim etishi, talablarni qisman bajarishi, muassasa rahbari tomonidan ijobiy tavsifnoma olgan bo'lishi kerak.

**Qoniqarsiz (2 ball)** ball talabaga eski o'zbek yozuvi,xattotlik o'qitish metodikasi fani bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmagani, topshiriqlarni bajarmaganligi, muassasa rahbari tomonidan ijobiy tavsifnoma olmagani uchun qo'yiladi.

## 8. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar:


1. Habibullaev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2000. – 172b.
2. Madraimov A., Fuzailova G. Tarixiy manbashunoslik. – Toshkent: Fan, 2006. – 314 b.


### Qo'shimcha adabiyotlar:


1. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Ш. Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.

3. Ш.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.

4. Актуальные вопросы литературоведения и методики преподавания ли-тературы: Сб. научн. работ. Вып.1. –Саратов, 2000.

5. Ганьшина Г.В. Методика прподавания специальных наук. Учебное пособие для бакалавриата, специалитета и магистратуры. 2-е издание. – Москва: Юрайт, 2019. https://biblio-online.ru/viewer/metodika-prepodavaniya-specialnyh-disciplin-445284.

6. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1996.

7. Зоҳидов Р. Илмий маърифий асар таҳқиқи. – Тошкент: 2020. 154 б

8.Shukurova Z. Mumtoz nasrda og'zaki ijod an'anasi. – Toshkent: 2020. 140 b

## Axborot manbalari

8.www.ZiyoNet
9.www.nuqf.intal.uz
10. www.ziyouz.com
11. www.ref.uz
12. www. tdpu. uz
13. www.pedagog. uz
14. www. nutq. intal. uz
15. http://www.multimedia.uz
16. www.tilvaadabiyot.uz